

MUSIQA DARSLARINI O'TISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Saxob Karimov

Musiqa madaniyati fakulteti

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda axborot va kompeyuter texnologiyalari rivojlanishini hamda musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni hisobga olgani holda musiqa darslarida kompeyuter texnologiyalaridan o'rinni va samarali foydalanish darsning sifatli va sermazmun bo'lishiga yordam berishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlari: Audio, vedio, audio-vezual, o'quv tarbiyaviy, musiqa darslari, fanlararo aloqadorlik, davlat ta'lim standartlari, ta'lim muassasalarida, tadqiqot.

Insoniyat madaniy hayotiga, uning yangi avlodini ta'lim tizimi orqali tarbiya qilish jarayonlariga ovoz yozish va audio-video informatsiyalarni uzatish jarayonlarini loyihalarini ishlab chiqish orqali, uslublarini tadqiqot qilish bilan audio-vizual jihozlar kashf etilganiga 100 yildan oshdi.

XX - asrga kelib teatr-kontsert tashkilotlari, televizion ko'rsatuvalar, radio eshittirishlar tayyorlashda ovoz rejissyorligi kasbi shakllangani va rivoj topgani endi hammaga ma'lum. Ommaviy tamosha tadbirlari maydonlarini ovozlashtirish bo'yicha tuzilish modellarini ishlab chiqish va qo'llash kun sayin takomillashib bormoqda.

Ayniqsa, musiqachilarini ta'lim muassasalarida tarbiyalashda audio-vizual jihozlarga tayanib o'quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish, o'quvchining o'zlashtirish darajasi va teranligini aniqlash va musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash ko'nikmalarini singdirish, o'quv jarayonini, o'quv-uslubiy, ma'naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg'or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish allaqachon yo'lga qo'yilgan.

Ta'limning barcha bo'g'inlarida fanlar bo'yicha ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlari talablari faqatgina yoshlarga chuqur bilim va tarbiya berishni emas, balki ertangi kun yaratuvchilari bo'lmish yoshlarni ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlash vazifalarini ham ko'zda tutadi. Bu esa amaldagi ta'lim tizimining barcha bosqichlarida muhim didaktirk ahamiyatga ega bo'lgan o'quv fanlarini bir-biri bilan o'zaro aloqador mexnizmlaridan o'z o'rnida va samarali foydalanish va shu orqali ta'lim va tarbiya ishlarini takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Ta'limning barcha bosqichlarida fanlarning integratsiyalashuv jarayoni shuni ko'rsatadiki, fanlarning o'qitilishida ularni o'zaro aloqadorlik hususiyatlaridan maqsadli foydalanish darslarni pedagogik va metodik to'g'ri tashkil qilinishi, har bir fanni o'qitilishini mazmunli va sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

O'quv fanlararo integratsiyani amalga oshirishda muhim omil bo'lib, ta'lim jarayonida muammolik, fanga qiziqish, noan'anaviylik, o'qitishga tehnologik yondashuv, kasbga yo'nalganlik, uzbeklik printsplarining mazmun va mohiyatini ifoda etish hususiyati bilan o'quvchilarda tizimli bilim, ko'nikma va malakalarni shakllanishiga olib keladi. Shuningdek, ularda olam, tabiat, jamiyat haqida yaxlit tasavvurni shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi, natijada ularda hayotni teran anglash, ongli dunyoqarash badiiy tafakkur rivojlanadi. O'quv fanlararo aloqalar, ya'ni fanlararo bog'liqlik didaktik prinsip sifatida xam, shuningdek, ta'lim va tarbiya mazmunini boyitish, uning samaradorligini ta'minlashning didaktik sharti sifatida ham hizmat qilishi mumkin. Muayyan fanlarni o'qitish jarayonida o'quv fanlararo aloqalardan foydalanishning ahamiyati va ijobiy jihatlari shundan iboratki, ular o'quv tarbiya jarayonining, barcha tarkibiy elementlari(mazmun, shakllar, usul va vositalar)ni yaxlit maqsadga birlashtirib, uning samarali kechishiga ko'maklashadi. Fanlararo aloqadorlikning barcha tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlardagi kabi, musiqa fanlari tizimida ham juda keng miqiyosidagi bog'liqlik jihatlari mavjud. Ular o'z o'rnida darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning keng imkoniyatlarini ham yuzaga keltiradi. Hech bir fan yoki soha o'zi alohida holda rivojlna olmaydi. Fanlar va ilm sohalari doimo bir-birini taqozo etadi, bir-birini

to'ldiradi, boyitadi. Ularni bir-biridan ajratish taraqqiyot zanjirini uzish bilan barobardir.

Umumta'lim maktablaridagi musiqa ta'limi va tarbiyasining bosh maqsadi o'quvchilarda inson ma'naviyatining ajralmas va tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalashni ko'zda tutadi. Bu olivjanob maqsadni amalga oshirish esa bu borada ko'pgina ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni ijobiy tarzda hal etilishini taqozo etadi:

1.O'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va mehr muhabbatni o'stirish.

2.Musiqa haqidagi bilimlar va amaliy ko'nikma hamda malakalarni egallash jarayonida badiiy ijodkorlik his-tuyg'ularini rivojlantirish.

3.O'r ganilayotgan musiqa asarlarining badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida ahloqiy estetik tarbiyani amalga oshirish.

4.Musiqa darslarida san'at turlariga, o'qitiladigan barcha fanlarga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq va intilish uyg'otish.

5.Darslarni fanlararo aloqadorlikda tashkil etishda bir fanga tegishli mavzu bo'yicha bilimlarni, qonun-qoidalar, ma'lumotlarni ikkinchi fanga aloqadorlik jihatlari bilan bog'lab, ulardan foydalanish asosiy fan mavzusiga oid bilmlarni o'r ganish.

Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish ma'suliyati birinchi navbatda musiqa o'qituvchisi zimmasiga tushadi. Shunday ekan, musiqa o'qituvchisi darslarni o'tishda amaldagi talab va me'zonlar bilan cheklanmasdan unga keng qamrovli tarzda yondashishi lozim bo'ladi. Musiqa o'qituvchisi musiqa darslarini muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangicha pedagogik yondashuvlar, ish shakl va usullaridan, shuningdek, boshqa fanlarni o'qitilishiga oid ilg'or tajribalardan unumli foydalanishi, doimiy ravishda ta'lim sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lib, ijodiy izlanishda bo'lishi lozim. Ta'kidlab o'tganimizdek, musiqa o'qituvchisining musiqa san'atiga oid bir qator fanlardan chuqur bilim va kasbiy-malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lishi talab etiladi. Shu bilan birga musiqa o'qituvchisi bir soatlik dars jarayonida yaxshi rejissiyor, aktyor

sifatida o’zini namoyon qilishi, ona tili, adabiyot, tarix, tasviriy san’at, matematika, raqs san’atidan yaxshi xabardor bo’lishi va ulardan unumli va samarali foydalana olishi kerak bo’ladi.

Ushbu fikrlarga tayanib shuni aytishimiz mumkinki, umumta’lim maktablarida o’qitiladigan musiqa madaniyati darslari o’zining spetsifik hususiyati va tabiatiga ko’ra bir qator fan va san’at turlari bilan o’zaro bog’liqlik hamda tuzilishi tizimiga oid umumiyligini qonuniyatlargacha aloqadorlikni o’zida mujassam etadi. Shunday ekan, musiqa darslarini tashkil etish va uni yuqori darajada sifatli va muvaffaqiyatli kechishini ta’minlashda fanlararo aloqadorlik va bog’liqligiga oid komponentlardan oqilona va o’z o’rnida foydalanish darsning mazmundorligini ta’minlaydi. Bu jarayonda musiqa darsining har bir faoliyat turi o’ziga xos “bir dars” alohida mavzu hamda bir soatlilik darsning mavzusiga yo’naltirilgan bo’lishi va uning yakuniy samarasi esa o’quvchilarni boshqa fanlarni o’zlashtirishlariga, fanlarga nisbatan munosabatlarida ijobiy o’zgarishlar yuz berishiga olib kelishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. S.B.Karimov. “Musiqa darslarini tabiat fani bilan o’zaro bog’liqlikda tashkil etishning o’ziga xos uslublari”. “Xorijiy filologiya , adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik masalalari” Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. Jizzax 2021-yil 23-fevral. 238-241 bet.
2. S.B.Karimov “Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda jamoatchilik ta’sirini oshirishning innovatsion omillari” . Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Jizzax -2021. 241-bet.
3. S.B.Karimov "Musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning o’ziga hos uslublari" . Alma mater Samarqand. 2014-yil 2-kitob. 51-52-bet.
4. S.B.Karimov “O’quvchilarning bilim va malakalarini shakllantirishda fanlararo integratsiyalashuvini qo’llashning ahamiyati”. “Ilmiy va professional ta’lim jarayonida muloqot, jamiyat, fan va madaniyatlar integratsiyasi” nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Samarqand 2021-yil 12-13-noyabr. 288-290-bet.
5. Davlat ta’lim standartlari.- T.: 2017-yil 6-aprel.

6. D.A.Karimova, Sh.A.Yakubova. Bolalar musiqa asarlari ustida ishlash.-T.:Fan va texnologiya, 2012.
- 7.Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjaeva. –T.:2014.